

PSIXOLOGIYA FANIDA INTELLEKT MUAMMOSINI O'RGANILISHI

O'ktamova Shohista Odilbek qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada psixologiya fanida intellekt muammosini o'rganilishi, intellekt to'g'risidagi olimlar qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, shaxsda intellektual qobiliyatlarning shakllanishi va rivojlanishi, intellektual qobiliyatlar rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar to'g'risida ma'lumot berilgan. Tahlillar asosida intellektual rivojlanishni samarali tashkil etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: intellekt, intellektual qobiliyat, birlamchi aqliy kuchlar, o'quv faoliyati, strategiya, psixologik rivojlanish.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimlarni egallashi bilan bir qatorda, ularda o'z fikr jarayonlarini nazorat qilish va anglash qobiliyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini modernizatsiya qilishga qaratilgan qarorlari ham o'quvchilarning tafakkur va intellektual salohiyatini rivojlantirishda zamonaviy psixologik yondashuvlarning ahamiyatini ta'kidlab o'tadi.

Intellekt so'zi (lotin tilidan - aql, ong, fikr) ta'rifda ko'pincha fikrlashga tenglashtiriladi, va bu quyidagi ta'rifda ham aks etgan: aql - bu insonning fikrlash qobiliyati. Biroq, hatto fransuz psixologi J. Piaje ham bu ikki tushunchani ajratib ko'rsatgan. U intellektni "yangi sharoitlarga psixologik moslashish" deb talqin qilishni taklif qildi. Agar Piaje uchun intellekt barcha darajadagi xatti-harakatlarning umumiy tartibga soluvchisi bo'lsa, ba'zi boshqa tadqiqotchilar (A. Bine, L. Veksler) uchun bu inson va boshqa har qanday tirik mavjudotning yangi narsani o'rganaolish qobiliyatidir. Shunday qilib, hozirgi vaqtda intellekt tushunchasining kamida uchta talqini mavjud:

1. Biologik talqin: "yangi vaziyatga ongli ravishda moslashish qobiliyati".

2. Pedagogik talqin: "o'rganish qobiliyati, o'rganuvchanlik".

3. A. Bine tomonidan shakllantirilgan tizimli yondashuvda esa: intellekt- "vositalarini maqsadlarga moslashtiraolish qobiliyati" sifatida tavsiflanadi. Tizimli yondashuvda intellekt muayyan qobiliyatlarning to'plami sifatida tavsiflanadi. Insonning kognitiv jarayonlarining yig'indisi uning intellektini belgilab beradi. "Intellekt - bu ongli harakat qilish, oqilona fikrlash va hayotiy sharoitlarni to'g'ri uddalashning global qobiliyatidir" (Veksler), ya'ni intellekt insonning atrof-muhitga moslashish qobiliyati sifatida baholanadi.

Intellektning tuzilishi qanday? Turli konsepsiyalarda bu savolga o'ziga xos javoblar keltirilgan. Xullas, asr boshlarida Spirmen (1904) intellektning umumiy

omili (G-general faktor) va o'ziga xos qobiliyatlar ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiluvchi maxsus S omilini (S –spetial faktor) ajratib ko'rsatdi. Spirmen nuqtayi nazaridan, har bir inson ma'lum darajadagi umumiy intellekt bilan tavsiflanadi, bu odamning atrof-muhitga qanday moslashishini belgilaydi. Bundan tashqari, barcha odamlarda konkret muammolarni hal qilishda namoyon bo'ladigan turli darajada o'ziga xos qobiliyatlar rivojlangan.

Terstoun statistik usullardan foydalangan holda, umumiy intellektning turli tomonlarini o'rganib chiqdi, va ularni birlamchi aqliy kuchlar-potensiyalar deb ataydi. U ettita shunday potensiyani aniqladi:

- 1) hisoblash qobiliyati, ya'ni raqamlar bilan ishlash va arifmetik amallarni bajarish qobiliyati;
- 2) verbal (og'zaki) moslashuvchanlik, ya'ni insonning eng mos so'zlardan foydalangan holda muloqot qilish qobiliyati;
- 3) verbal idrok, ya'ni og'zaki va yozma tilni tushunish qobiliyati;
- 4) fazoviy orientatsiya yoki fazoda turli jism va shakllarni tasavvur qilish qobiliyati;
- 5) xotira;
- 6) fikr yuritish qobiliyati;
- 7) obyektlar va tasvirlar o'rtasidagi o'xshashlik yoki farqlarni idrok etish tezligi.

Amerikalik psixolog J. Gilford intellektni kub model sifatida taqdim etadi. U aqliy faoliyatning 120 ta omilini ajratib ko'rsatib, ular qanday aqliy operatsiyalar uchun zarurligi, bu operatsiyalarning natijalari va ularning mazmuni obrazli, ramziy, semantik, xulq-atvorga oid bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan.

R.Kettel va J.Xormlar intellektni ikkita tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlaydilar, hamda ularning mohiyatini tushuntirib berishga harakat qiladilar:

1. Flyuidlashgan intellekt.
2. Kristallashgan intellekt.

“Flyuidlashgan” intellekt inson faoliyatining deyarli har bir jabhalarida ko'zga tashlanib, dastavval u ilk bolalik davrida yorqinroq namoyon bo'ladi, keyinchalik esa asta-sekin inson ruhiyatiga singib boradi. Flyuidlashgan intellekt tarkibi go'yoki nasldan-naslga meros tariqasida o'tadi.

“Kristallashgan” intellekt tarkibi esa hayot davomida ontogenezda orttirilgan ko'nikmalardan tashkil topadi.

Fransuz psixologik maktab namoyandalarining fikricha, shaxs shakllanishining dastlabki belgilari unda paydo bo'layotgan affektiv holatlardir. Masalan, imo-ishoralar, verbal ma'no kasb etuvchi holatlar. Inson shaxsining shakllanishi dastavval instinklar va shartli reflekslar orqali amalga oshirildi. Insondagi qoniqish, maroqlanish,

empatiya, ruhlaniş singari murakkab kechinmalar shaxsning shakllanishini belgilovchi asosiy mezonlar boʻlib hisoblanadi.

Shvetsariyalik psixolog J.Piaje intellekt muammosiga oʻz shaxsiy nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yondashadi. U koʻp hollarda tafakkur tushunchasi oʻrniga “intellekt” terminin ishlatadi, baʼzan psixologik atamalardan birmuncha uzoqlashadi va h.k. J.Piaje intellekt nazariyasini 2 (ikki) ta muhit jihatlariga ajratib, ularni intellekt funksiyalari hamda intellekt davrlari deb nomlaydi. Piaje mulohazasiga koʻra, intellektning asosiy funksiyalari qatoriga uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashish, koʻnikish) kiritilgan boʻlib, ular intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi. Muallif intellektning quyidagi rivojlanish bosqichlariga ajratadi:

1. Sensomotor intellekt (tugʻilishdan to 2 yoshgacha)
2. Operatsiyalardan ilgargi tafakkur davri (2 yoshdan 7 yoshgacha)
3. Konkret (yaqqol) operatsiyalar (aqliy harakatlar) davri (7-8 yoshdan 11-12yoshgacha)
4. Formal (rasmiy) operatsiyalar (aqliy harakatlarni amalga oshirish) davri.

Shunday qilib, intellekt muammosi chet el (Gʻarbiy Yevropa, AQSh) psixologiyasida juda keng oʻrganilgan boʻlib, ular turlicha nazariyalar, konsepsiyalar, yondashishlar, pozitsiyalar, yoʻnalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan. Shuning bilan birga intellektni oʻlchash mezonlari, kriteriyalari, taraqqiyot koʻrsatkichlari, oʻziga xos xususiyatlari, test yaratish va undan turli yoshdagi kishilar aqliy rivojini tekshirishda foydalanish xilma-xil ilmiy-nazariy negizlarga qurilgandir.

Oʻzbekistonda intellekt psixologiyasini keng yoritgan olimlardan biri E.Gʻ.Gʻoziyev boʻlib, uning fikriga koʻra, intellekt kishining shaxsiy tashabbusi bilan oʻz oldiga konkret maqsad, yangi vazifalar qoʻya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz qilishi, natijani koʻz oldiga keltira olishi, qoʻyilgan vazifani hech kimning koʻmagisiz, koʻrsatmasisiz oʻzining aqliy izlanishi tufayli, turli yoʻl, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak».

V.M.Karimova fikricha, intellektual qobiliyatlar masalasi eng avvalo inson aql-zakovatining sifati, undagi malaka, koʻnikma va bilimlarning birligi masalasi bilan bogʻliq. Ayniqsa, biror kasbning egasi boʻlish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis boʻlib etishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada koʻproq qobiliyat tushunchasi bilan bogʻlab oʻrganiladi. Ilm fandagi anʼanalar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bogʻliq sifatlar juda koʻplab tadqiqotlar obyekti boʻlgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aql sifatiga aloqador boʻlgan koʻrsatkichni oʻlchashga uringanlar. Koʻpchilik olimlar odam intellektida uning verbal, miqdoriy, fazoviy koʻrsatkichlarini aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va xayol jarayonlari bilan

bog'laydilar. Qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, unga va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi. Oila muhitining aql o'sishiga ta'sirini hech kim inkor etmaydi.

G'.B.Shoumarov shaxsning aqliy saviyasiga alohida urg'u berib, har bir davlat, jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli o'z fuqarolarining saviyasi bilan belgilanishini e'tirof etadi. Jamiyat va fan-texnikaning rivojlanishida aql muhim omil va mezonlardan biridir. Shuningdek, G'.B.Shoumarov: "Har qanday insonparvarlik jamiyatida aqli zaiflarga e'tibor muhimligini uqtirib, aqli zaiflik omillarini markaziy asab tizimining organik buzilishi, shuning oqibatida bola bilish faoliyatining turg'un pasayishidir" deb fikr bildiradi.

E.Z.Usmonova inson bilimi qanchalik keng va chuqur bo'lsa, uning aqliy faoliyatining tajribasi shunchalik mukammallikka ega. U shunchalik ko'p hal etilmagan muammolarni ko'ra oladi, ongidan shunchalik tez echimni talab etuvchi fikriy vazifalar yuzaga keladi, deb aqliy rivojlanishni bilimlarni chuqurlashtirishga bog'laydi. Aqlning muhim sifatlaridan bo'lgan tafakkurga alohida urg'u berib, uning yordamida sezgi, idrokka berilmagan va umuman kuzatish imkoniyati bo'lmagan hodisalarni aqlan hal qilish mumkinligini ta'kidlaydi.

Z.Nishonova o'z ilmiy izlanishlarida aqliy faoliyat usullari va yo'llarini egallash muammosi ilm va texnikaga yangicha zamonaviy talablarning ortishi, ta'lim metodlarining takomillashishi, o'quv dasturlari nazariy darajasining kuchayishi va ta'limning jadallashuvi munosabati bilan muhimdir, deydi. Shuningdek, u o'quvchilarda aqliy faoliyat usullari va yo'llarini guruhliy trening metodi yordamida rivojlantirish strategiyasini o'zbek maktablari amaliyotida qo'llashni tavsiya etadi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsda aqliy faoliyatni tarbiyalaydigan, uning mahsuldorligini oshiradigan, ijodiy xislatlarni rivojlantiradigan an'anaviy metodlar doirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Maktablarda fanlardan ilmiy to'garaklar.
2. O'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida o'quvchilarning ilmiy jamiyatlari.
3. O'quvchilar va o'quvchilarning har xil doirada o'tadigan olimpiadalari.
4. O'quvchilar ilmiy-tadqiqot ishlari.
5. Ijodiy ishlar, ko'riklar, konkurslar, musobaqalar va hokazo.

Voqelikni bilish va bilimning to'g'riligini belgilashda ba'zi talablarga izchillik bilan rioya qilish muhim:

- biron narsaning shubhasiz haqiqat ekanligiga ishonch hosil qilmaguncha uni haqiqat deb bilmaslik, ya'ni izchil ravishda shoshma-shosharlikdan, o'z-o'zini ishontirishdan saqlanish kerak. O'z hukmiga shunday narsalarni kiritish kerakki, u aqlda noaniqlikka hech qanday o'rin qolmasin.

- o‘zi uchun qiyin narsalarni qancha talab qilinsa, shuncha bo‘laklarga ajratishi lozim. Shundagina ularni tez va to‘g‘ri hal qilish imkoniyati ro‘yobga chiqadi.

- o‘z fikri yo‘nalishini boshqara bilish muhimdir. Eng sodda va oson bilinadigan narsalardan boshlab asta-sekin, pog‘onama-pog‘ona tobora murakkabroq narsalarni bilishga qarab borish kerak. Hatto tabiiy holatda biri ikkinchisidan keyin kelmaydigan narsalar o‘rtasida ham tartib bor, deb hisoblashni aslo unutmaslik lozim.

- doimo to‘liq ro‘yxat va izohlarni tuzishga e‘tibor qaratmoq lozimki, natijada hech narsa tushib qolmaganiga ishonch hosil bo‘lsin.

O‘quvchilarda intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi ularning tafakkur, mantiqiy xulosalash, muammoli vaziyatni hal qilish ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liq. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayoni o‘quvchi faoliyatini nazorat qilish va ongli ravishda boshqarishni talab qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1999. – 30 b.
2. Гуревич К.М. Психологическая диагностика. Учебное пособие. М.: УРАО, 1997. - 236 с.
3. G‘oziev E. G‘. Tafakkur psixologiyasi – T.: «Universitet» 1990, - 176 b.
4. Jumayev N.Z. “O‘smirlarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari” nomli dissertatsiya ishi. Buxoro 2023.- 120 bet.
5. Маленов А.А., Маленова А.Ю. Психологический практикум «Мышление и речь»: учебно-методическое пособие / сост.: А.А. Маленов, А.Ю. Маленова. Омск: Изд-во ОмГУ, 2005. - 108 с.
6. Nishonova Z.T. “Psixokorreksiya”. - T.: TDPU. 2006. B. – 174 b.
7. Хадарцева Л.С. Формирование интеллектуальных умений учащихся при изучении гуманитарных предметов: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. -М., 1995. -30 с.
8. Экспериментальная психология: Практикум: Учебное пособие для вузов/Т. Г. Богданова, Ю. Б. Гиппенрейтер, Е. Л. Григоренко и др.; Под ред. С. Д. Смирнова, Т. В. Корниловой. М.: Аспект Пресс, 2002. - 383 с.